

**XVII ASR USMONLI TURKCHASI VA SOLIH IBN MUHAMMAD**

*Nasirova Dildora Talibjonovna*  
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*tayanch doktoranti*  
*nasirovadildora86@gmail.com*  
*tel: +998977498966*

**Annotatsiya:** Ko'p millatli Usmonlilar sulolasi davrida turkiy tilning rivojlanishi hamma joyda bir hil darajada emas edi. Masalan, XVII asrda qipchoq turkchasidan o'g'uz turkchasiga o'tishning so'nggi bosqichlari Misr va uning atrofida kechgan bo'lsa, XIX asrda Anatoliya atrofida biz mumtoz usmonli turkcha deb ataydigan o'guz turkchasi iste'molda edi. Bundan tashqari bu davrda tili turkiy bo'lmagan arab va turk xalqlari kundalik hayotlari uchun turkiy tilni o'rgandilar. Anatoliya va Rumelidagi turk xalqlari Usmonlilarning fan va madaniyatini o'zlashtirdilar. San'at tilini tushunish uchun arab va fors tillarini o'rganish zarur ekanligini his qildilar. Bu davrning til taraqqiyoti, xalqning tilga bo'lgan ehtiyojlarini yaxshi tushungan Solih ibn Muhammad Iroq, Misr, Anatoliya va Rumelida turk tilidan dars bera boshladi, turli tadqiqotlar olib bordi. Xususan, "Ash-Shuzur az-Zahabiyya va al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati at-turkiyya", "Qomus al-Arvam fi Nizam al-Kalam", "Uknumu fi lug'at ar-Rumiy va "At-Tarjuman fi lug'at al-Usmani" kabi lug'atshunoslik, grammatika va ta'lim-tarbiyaga oid asarlari shular jumlasidandir. Ushbu maqolada Solih ibn Muhammadning hayoti, uning turkiy tilga qo'shgan hissasi va "Ash-Shuzur az-Zahabiyya va al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati at-turkiyya" asari qisqacha muhokama qilindi va baholandi.

**Kalit so'zlar:** XVII asr usmonli turkchasi, Solih ibn Muhammad, lug'atshunoslik, "Mirqat", "Axtari Kabiyr", "Ne'matulloh", "Donestan", "Ash-Shuzur az-Zahabiyya va al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati at-turkiyya".

**Аннотация:** Во времена многоэтнической Османской династии развитие турецкого языка не везде было равномерным. Например, в 17 веке последние этапы перехода от кипчакского турецкого языка к огузскому турецкому происходили в Египте и вокруг него, а в 19 веке в Анатолии использовался огузский турецкий язык, который мы называем классическим османским турецким языком. Кроме того, в этот период нетурецкие арабы и турки изучали турецкий язык для повседневной жизни. Тюркские народы Анатолии и Румели переняли науку и культуру османов. Они считали, что необходимо выучить арабский и персидский язык, чтобы понять язык искусства. Салих ибн Мухаммад, хорошо понимавший языковое развитие этого периода и языковые потребности народа, начал преподавать турецкий язык в Ираке, Египте,

Анатолии и Румели, а также проводил различные исследования. Особенно «Аш-Шузур аз-Захабия ва аль-Китай аль-Ахмадия фи аль-лугати аль-туркийя», «Комус аль-Арвам фи Низам аль-Калам», «Укнуму фи луг'ат ар-Руми и Среди них труды «Ат-Тарджуман фи лугат аль-Усмани» по лексикологии, грамматике и образованию. В этой статье кратко обсуждались жизнь Салиха ибн Мухаммада, его вклад в турецкий язык и труд «Аш-Шузур аз-Захабия ва аль-Китай аль-Ахмадия фи аль-лугати ат-туркийя». оценено.

**Ключевые слова:** Турок-осман 17 века, Салих ибн Мухаммад, лексикограф, «Аш-Шузур аз-Захабийя ва аль-Китай аль-Ахмадия фи аль-лугати ат-туркийя».

**Abstract:** During the multi-ethnic Ottoman dynasty, the development of the Turkish language was not uniform everywhere. For example, in the 17th century, the last stages of the transition from Kipchak Turkish to Oghuz Turkish took place in and around Egypt, while in the 19th century, Oghuz Turkish, which we call classical Ottoman Turkish, was in use around Anatolia. In addition, during this period, non-Turkish Arab and Turkish peoples learned Turkish for their daily life. The Turkic peoples of Anatolia and Rumeli adopted the science and culture of the Ottomans. They felt that it was necessary to learn Arabic and Persian in order to understand the language of art. Salih ibn Muhammad, who well understood the language development of this period and the language needs of the people, began to teach Turkish in Iraq, Egypt, Anatolia and Rumeli, and conducted various researches. Especially "Ash-Shuzur az-Zahabiyya wa al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati al-turkiyya", "Qomus al-Arwam fi Nizam al-Kalam", "Uknumu fi lug'at ar-Rumi and "At-Tarjuman fi lug'at al-Usmani" works on lexicology, grammar and education are among them. In this article, the life of Salih ibn Muhammad, his contribution to the Turkish language and the work "Ash-Shuzur az-Zahabiyya wa al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati at-turkiyya" were briefly discussed and evaluated.

**Keywords:** 17th century Ottoman Turk, Salih ibn Muhammad, lexicographer, "Mirqat", "Axtari Kabiyr", "Ne'matulloh", "Donestan", "Al-Shuzur az-Zahabiyya wa al-Kitai al-Ahmadiyya fi al-lugati at-Turkiyya."

XVII asrda Usmonlilar imperiyasi Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Anatoliya va Markaziy Yevropani bosib oldi. Natijada, uning chegarali juda katta darajada kengaydi. Bu ulkan mintaqada turli tilda so'zlashadigan xalq va elat vakillari yashar edi. Shu sabbdan turkiy bo'lmagan xalqlar turkiy tilni tushunish uchun uni o'rganishlari zarur edi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'sha davrda xalqning bu ehtiyojini qondirish uchun ko'p ishlar amalga oshirilgan. Aynan ta'lim dargohlarining yetishmasligi tufayli u davrda til munosabatlari shaxsiy vositalar orqali, individual tarzda amalga oshirilgan. Imkoniyati borlar esa odatda, shaxsiy ustozlar yollashgan va

bu orqali o'z farzandlariga turkiy tilni o'rgatish uchun sharoit yaratib berganlar. Bunday turdagi ta'lim tizimi, Misr va uning atrofida keng tarqalgan edi. Chunki bu mintaqada turkiy tili 1250-yildan buyon Mamluklar davridan beri rasmiy til bo'lib kelgan, xalq ham ushbu tilni o'rganishga ishtiyoqmand edi. Mazkur mintaqada usmonli turklar bilan mahalliy arab xalqining turkiy tilga bo'lgan qiziqishi XX asrgacha davom etdi.

XVII asrda Anatoliya va Rumelida istiqomat qilgan turkiy xalqlar badiiy va adabiy til unsurlarini tushunish uchun usmonli turkchani o'rganishga harakat qilishdi. Chunki bu davrda arab va fors tillarida turkiy til elementlari yaqqol sezilib turar edi. O'z navbatida bu tillarda mavjud grammatik qoidalar turkiy tilning tabiiy tuzilishiga tahdid sola boshladi.

Ko'rinib turibdiki, XVII asrda turkiy bo'lmagan usmonli xalqlar orasida turkiy tilni o'rganishga ehtiyoj tug'ilgan. Turkiy tilda gaplashadigan xalqlar esa o'z navbatida arab va fors tillarini o'rgana boshladilar. Aynan shu davrda istiqomat qilayotgan "Mullo Solih" nomi bilan mashhur Solih ibn Muhammad Iroq, Misr, Anatoliya va Rumelida xalqning tilga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun turli ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirdi. Ushbu tadqiqotda muallifning Misrdagi, "Ash-Shuzur az-Zahabiyya va al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati at-turkiyya" kitobi nomi bilan yozilgan turkcha kitobi asosida uning hayoti, ijodi va turkiy tilga qo'shgan hissasi baholandi.

"Ash-Shuzur az-Zahabiyya va al-Qita'i al-Ahmadiyya fi al-lug'ati at-turkiyya" XVII asrda yozilgan grammatikaga oid kitob bo'lib, uning muallifi Solih ibn Muhammaddir. Uning otasi Sharif Muhammad al Juseyniy Misrda qozi lavozimida ishlagan. Mullo Solih bu kitobni o'g'liga turkiy tilni o'rgatish uchun yozgan. (Besim Atalay, 1949: IV) Biroq muallif o'z asarining so'zboshisida bu kitobni barcha arab bolalari bahramand bo'ladigan noyob asar yozishga harakat qilganligini aytib o'tadi. Bu asar XIII asr Mamluklar davrida arab bolalariga turkiy tilni o'rgatish uchun yozilgan asarlarga muvofiq tarzda, ularga yondashgan holda yozilgan.

"Ash-Shuzur az-Zahabiyya" XVII asrdan to hozirgi kunimizga qadar turli mualliflar tomonidan foydalanilgan, qayta ishlab chiqilgan. Bundan tashqari kitob Buluq bosmaxonasida 1837-yil qayta ko'rib chiqilib, "Kitabi Tarjuman at-turkiy va al-arabiy" nomi bilan nashr etilgan. Bugungi kunda "Ash-Shuzur az-Zahabiyya"ning Misr, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Fransiya, Tunis, Iroq kabi yirik davlatlarda nuxsalari saqlanmoqda. "Ash-Shuzur az-Zahabiyya"ning keng miqyosda ko'p yillar davomida qo'llanilishining asosiy sababi Solih ibn Muhammad o'z ishini mustahkam bilimlarga tayangan holda va yaxshi namunalarga asoslanib yozganligidadir. Buni u quyidagi jumlar bilan ifodalaydi: "Men qonun-qoidalarni inobatga olgan holda ushbu jozibali asar namunasini tez-tez foydalaniladigan manbalarga muvofiq tuzdim. Men ularni yig'ib yozib oldim. Men buning qiyin emasligiga ishonch hosil qildim". Solih ibn Muhammad tez-tez foydalangan manba sifatida tan olgan asarlar kitobning kirish

qismi va so'nggi bo'limida aytib o'tilgan. Muallif o'zining so'zboshisida u tayanib yozgan asarlar faqat o'sha davrning nufuzli olimlari tomonidan yozilganligini ta'kidlaydi. Ushbu asarlar orasida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan, muallif undan faol tarzda foydalangan kitoblar quyidagilardir:

**Mirqat** (مرقات اللغة – Mirqat al-Lug'at)- arabiy-turkiy lug'at bo'lib, usmonli olim Abdulloh Kesteli (vaf. 1541) tomonidan yozilgan. U arab tili va lug'atshunoslik sohasida chuqur bilimga ega inson bo'lgan. “Mirqat al-Lug'at” 30 mingta lug'at maqolalarini o'z ichiga olgan yirik asardir. Muallif bu so'zlardan 14 mingtasini olgan. Ulardan 16 mingtasini Javhariyning “As-Sihah al-Lug'at” asaridan, 16 mingtasini esa Firuzabodiyning “Al-Qomiy al-Muhiyt” idan olgan. Asarda Kesteli avval arabcha so'zlarni, keyin esa uning turkiycha tarjimasini yozgan. Shu jihatdan “Mirqat” va “Ash-Shuzur az-Zahabiyya” bir-biriga o'xshashdir. “Mirqat al-lug'at” dagi struktura Halil ibn Ahmad va Javhariy lug'atlaridagi tizimga o'xshaydi. So'zning oxirgi harfi “bob”larda, birinchi harfi esa “fasl”da aytiladi. Lug'atdan izlangan har qanday so'zlik so'zning oxirgi harfidan birinchi harfigacha bo'lgan tartibda topiladi. Bir necha ma'noga ega bo'lgan so'zlar tartibi ular ustuvor bo'lgan so'z ketma ketligida beriladi. (Yuche, 1988: 113) “Ash-Shuzur az-Zahabiyya” da esa alifbo tartibi mavjud emas. So'zlar asosan konseptual asosga ko'ra joylashgan.

“**Axtari kabiyr**” (اخترى كبير) ham arabcha-turkcha lug'at bo'lib, uning muallifi buyuk lug'atshunos olim Axtariydir. Uning taxallusi Muslihiddin Mustafo ibn Shamsiddin Qarahisariydir. Axtariy forschada “yulduz” degan ma'noni anglatadi. Muslihiddin Mustafo (vaf. 1560-61) Axtari kabiyr, ya'ni, “katta yulduz” demakdir. U o'z asarini 1545-yilda arab manbalaridan foydalangan holda yakunlagan.<sup>1</sup> Asar tahminan 40 mingta lug'at maqolalarini o'z ichiga oladi. Bu asarning turkiy lug'atshunoslikda asosiy ahamiyat kasb etishining sabablari quyidagilardir:

- lug'atdagi arabiy so'zlarning sulosiy va rubo'iy ildizlarini hisobga olmagan holda oldingi lug'atlardan ularni imlosiga ko'ra alifbo tartibda joylashganligi, to'g'rirog'i, bugungi lug'atlarga asoslanib yozganligi;
- tez-tez ishlatiladigan so'zlarni tanlash orqali kitob hajmini kamaytirish va lug'atni qo'llanmaga aylantirish;
- iloji boricha turkiy tildagi so'zlarning o'xshashlarini berishdan tashqari, boshqa sinonim arabiy so'z bilan mustahkamlash;
- so'zlarni arab tilidagi ma'nosiga ko'ra qo'llash va boshqalar. (Kilich, 1989: 184-185).

Solih ibn Muhammad “Ash-Shuzur az-Zahabiyya” ning muqaddima qismini berishda Axtari Kabiyrning usulidan foydalanadi. Kirish qismi: **الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي شَرَّفَ الْإِ**

<sup>1</sup> Karahisariy, Muslihiddin Mustafo bin Shamseddin, (1875). Ahteri-i Kebir, Istanbul: Ali Bey bosmaxonasi, Asarning oxirgi sahifasida asar kim, qayerda va qachon yozilganligi ko'rsatilgan.

نَسَانٌ وَ زَيْتَهُ بِالنُّطْقِ وَ اللِّسَانِ وَ كَرَّمَهُ عَلَي سَائِرِ المَخْلُوقَاتِ وَ فَضَّلَ مَنْ شَاءَ مِنْ عِبَادِهِ عَلَى مَنْ شَفَا بِالفَصَاحَةِ وَ الاِهْتِدَاءِ لِي تَمْيِيزِ اللُّغَةِ (insonni ulug'lab, uni so'z vat il qobiliyati bilan bezab, uni boshqa maxluqotlardan qadrliroq qilgan, bandalaridan kimni xohlasa go'zal maqtagan, so'zlash va tilni farqlash qobiliyatini bergan Allohga hamd bo'lsin). "Axtari Kabiyr"ning kirish qismi: وَ فَضَّلْنَا بِالْفَصَاحَةِ وَ البَيَانِ \* وَ رَزَقْنَا الْاِهْتِدَاءِ لِي تَمْيِيزِ اللُّغَاتِ وَ اللِّسَانِ. (Nutq va til qobiliyati bilan bizni ulug'agan, shu qobiliyat tufayli boshqalardan ustun qilgan, bir-birimizni ajrata olish inoyatini bergan Allohga hamd bo'lsin. (Karahisariy, 1875: 1))

"Ash-Shuzur az-Zahabiyya"da "Axtari Kabiyr" dagi iboralarga o'xshash ko'plab iboralarni uchratish mumkin. Bu asar ikki tilli bo'lgani uchun unda tez-tez ishlatiladigan so'zliklar haqida gap boradi. Ularning birgalikda olinganligi va matndagi izohlarning berilish uslubining bir-biriga o'xshashligi bu ikki asarning leksikografik ahamiyatini oshiradi va ularni bir-biriga yaqinlashtiradi.

"**Ne'matulloh**" (نِعْمَةُ اللهِ)- Ne'matulloh Ahmad tomonidan tuzilgan forsiy-arabiy lug'at. Ushbu lug'at ko'plab manbalardan foydalanilgan holda tuzilgan bo'lsada, "Lug'ati Halimiy" ning unga bo'lgan ta'siri ko'proq hisoblanadi. (Inche, 2010: 265) Asar muallifi Ne'matullohning haqiqiy ismi Halildir. Asli Sofiyadan, keyinchalik Istanbulga keladi va naqshbandiya tariqatiga mansub amir Buxoriy Zaviyaning shayxi Abdulatif afandi xizmatiga kirib amirning kutubxonasida ishlaydi. U o'z kitobini shu yerda yozgan. (Inche, 2010: 266) "Ne'matulloh"da alifbo tartibi mavjud, ammo so'zning harakatiga asoslanadi. Bu usul fors-turk lug'atlarida eng keng tarqalgan usuldir. "Ne'matulloh" da Masdar va otlar alohida boblarda berilgan. (Inche, 2010:267) Shunga o'xshash tartib "Ash-Shuzur az-Zahabiyya"da ham mavjud.

"**Donestan**" (دانستان) **lug'ati** mavzuviy tartibda tuzilgan ilk lug'atlardan biridir. Asarning haqiqiy nomi "Tuhfat al-Hadiyya"dir. Milodiy 1460 yilda Muhammad al Haj tomonidan tuzilgan. (Inche, 2010:266) Asar lug'at kitob bo'lsada, unda fors tilining asosiy grammatik qoidalari ham berilgan. Shu jihati bilan bu kitob fors tilini o'rganishni boshlaganlar yoki bolalar uchun tayyorlangan grammatik-lug'at kitobdir. (Chetin, 2006: 119) "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" va "Tuhfat al-Hadiyya" asarlari maqsadi va tayyorlanish uslubi jihatidan bir-biriga o'xshashdir.

"**Halimiy Chalabiy**" (حليمي جلابي) – muallifning asl ismi Abdulhalimdir. U Kastamonuda tug'ilgan, keyinchalik Bursa va arab mamlakatlarida ilm olgan. U to vafotiga qadar (mil.1516) Usmonli turk imperiyasi sultoni Yavuz Salim bilan birga edi. Yavuz Salimning Halimiy Chalabiyga qiziqishi o'zgacha bo'lgan, hattoki, bir muncha vaqt uning obro'si vazirning obro'sidan ustunroq edi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrlarda vazirlar turli masalalarda sulton bilan uchrashmoqchi bo'lsalar ular avval Halimiy bilan maslahatlashib, so'ng sulton huzuriga chiqishgan. Halimiy sulton Yavuz bilan Misr yurishida qatnashadi, ammo qaytishda Damashqda to'xtab, u yerda kasal bo'lib vafot etadi. Uning dafn marosimida sultonning o'zi qatnashadi. Halimiy



Chalabiy o'zining arab va fors tillaridagi murakkab bayt va jumboqlarni yechishdagi muvaffaqiyati bilan mashhur edi. (Abdulqodiro'g'lu, 1997:343) Solih ibn Muhammad "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" ni yozayotganida Halimiy Chalabiy ishidan foydalanganligini aytmaydi.

**Ibn Malik** (ابن ملك) . Muallifning haqiqiy ismi Izzatin Abdullatif bo'lib, madrasada mudarrislik qilgan. U hanafiya mazhabining fiqh olimi va lug'atshunosi edi. Ibn Fehrest yoki Fehresto'g'lu nomi bilan ham mashhur bo'lgan. U Aydino'g'ullar zamonida Tirda uzoq vaqt yashaydi va sulola vakillari tomonidan katta hurmatga sazovor bo'ladi. Ibn Malik turli sohalarda ko'plab asarlar yozgan. Usmonlilar davrida madrasalarda o'qitilgan "Manar ul-Anvar", "Masharik al-Anvar", "Majma al-Bahrayn" sharhi darsliklari o'sha zamonlarda juda katta e'tiborga sazovor darsliklar qatorida edi. Ibn Malik lug'ati muallifi bu asarni nabirasi Abdurrahmon uchun yozilganligini aytadi. U nazmiy asar bo'lib, 22 baytdan iborat. Uning ko'p qismi Qur'oni Karimdagi arabcha so'zlarning turkiy muqobilidan iborat.

**Tuhfatu Husam** (تحفة حسام) Anatoliyada yozilgan ilk turkcha-forscha nazmiy lug'atdir. Lug'at jami 305 baytdan iborat. (Turon,2007:18 Yakar 2009: 1017)

**Tuhfati Shohidiy** (تحفة شاهدي) Mavleviy shayhi Mug'lali Ibrohim Dede tomonidan 1515 yili yozilgan. U "Shohidiy" taxallusi bilan mashhur edi. Uning forsiy-turkiy tildagi nazm usulida yozilgan lug'ati el orasida juda mashhur va ko'p mutolaa qilingan kitoblardan edi. Bu asarga juda ko'p sharhlar ham bitilgan. (Turon,2007:18, Yakar 2009:1017)

**Sharhi debochai Guliston** (شرح ديباجي گلستان) . Muallifi Lomiy Usmonlilar imperiyasi gullab yashnagan davrda yashagan taniqli shoir va tarjimonidir. U fors adabiyotining ko'plab ko'zga ko'ringan namunalarini turkiy tilga tarjima qilgan. Xususan, Mulla Jomiyning (vaf. 1492) aksariyat asarlarini turkiyga tarjima qilgani uchun "Lomiyi Jomiyi Rum" nomi bilan ham tanilgan. Vafotiga qadar tahminan 45ga yaqin asar yozadi. Solih ibn Muhammad o'z asarida "Sharhi debochai Guliston"dan foydalanganligini aytib o'tadi. U "Ash-Shuzur az-Zahabiyya"ning so'zboshisida turkiy tilning fonetik qoidalarini bayon qiladi. O'z navbatida Lomiy ham o'z muqaddimasida shunga o'xshash ma'lumotlar borligini aytadi.

**Ad-Durratu al-Mudiyyatu fi al-lug'ati at-turkiyya** (الدرّة المضيّة في اللغة التركية) Mamluklar davrida turkiy tilni o'rgatish maqsadida yozilgan lug'at kitobdir. "Turkiy tilning yorqin gavhari" deya nom olgan bu asarning muallifi Abu Hayyondir. Ushbu asarning qo'yozmasi Zayanchovskiy tomonidan topilib, 1963-yil Venetsiyada bo'lib o'tgan "Sharq qo'lyozmalari II Jahon Kongressi" da ommaga taqdim etiladi. Qo'lyozmaning asl nusxasi Florensiya kutubxonasi 130-inventar raqami ostida saqlanadi. Qo'lyozma kotibi Husrav ibn Abdullohdur (Toparli,2003: V-VI). Asar 24 bobdan iborat bo'lib, dastlabki 23 bobiga turli sarlavhalar kiritilgan. (2a-19a).

Qo'lyozma 1965-1969- yillarda "Rodnik Oriyentalii" jurnalida 4 qismda nashr etilgan. (Argunshoh, 2010:188)

Solih ibn Muhammad "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" ni tugatgandan so'ng, Abu Hayyonning "Durrat ul-Mudiyya" asariga nazar soladi va uni o'z asari bilan solishtirganini aytib o'tadi (M4a-2/6). "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" ham "Durrat al-Mudiyya" kabi konseptual asosga tayanib yozilganligini bilish mumkin. Bundan tashqari, har ikkala asarda ham boblardan keyin kundalik hayotdagi yozishma suhbatlari mavjud.

**"Ta'lim al-Muta'allim"** (تعليم المتعلم) - ta'lim va tarbiya haqidagi kitob bo'lib, muallifi Burhoniddin az-Zarnuchiyydir. Asar ilk asrda yashagan Islom akademiyasi ulamolarining ta'lim-tarbiyasi asosida tuzilgan. Jami 13 bobdan iborat. Asarda kattalarga hurmat, xususan, ustozlarni, ota-onaga ehtirom, dars o'qitish uslublari, do'st tanlash, ilm va olimlarga qanday munosabatda bo'lish va boshqa masalalar yoritilgan (Yavuz, 1990:XIV). "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" ning so'nggi qismida "Ta'lim al-Muta'allim"ning ta'sirini sezish mumkin: "Bu kitob ta'limiydir. "Ta'lim al-Muta'allim" va G'azzoliyning kitobidan ko'chirdim". (M37a-8) U Burhoniddin az-Zarnuchiyydan iqtibos keltirganligini aniq ta'kidlaydi. "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" ning kirish qismida ta'lim-tarbiya usuli, so'nggi qismida esa mehnat qilish, ota-onaga itoat, ustoz tanlash, urf-odatlariga rioya qilish zarurligi to'g'risida pand-nasihatlari beriladi. Bu kabi mavzularning berilishi har ikki kitob o'rtasida o'xshashlik mavjud ekanligini bildiradi.

Solih ibn Muhammad yuqorida zikr qilingan kitoblardan tashqari boshqa manbalarga ham murojaat qilganligini aytib o'tadi. Bular asosan arabcha-turkcha, arabcha-forscha, turkiy-forsiy tillarda yozilgan ikki tilli lug'at kitoblardir. "G'azzoliy risolasi", "Sihahu a'jam", "Sihahu Bayan", "Javhar al-U'qud", "Hamdu sano lug'ati", "Guliston", "Masnaviy" va ularning sharhlari shu manbalar sirasiga kiradi. Muallifning bunchalik ko'p asarlarga murojaat qilganligining asosiy sababi uning o'z asari ustida qayg'urib, unga katta e'tibor berganligidadir. Ushbu asar XVII asr boshlarida yozilgan, oradan asrlar o'tib 1802-yilda "Buloq" bosmaxonasida ko'paytirilib foydalanilgan.

Solih ibn Muhammad "Ash-Shuzur az-Zahabiyya"ning yozilish sabablarini keltirar ekan, unga shunday ta'rif beradi: avvalambor, uning kitob yozish fikri bor bo'lganligi, ikkinchisi, atrofdagilar uni turkiy tilida bir kitob yozishga undaganligi, uchinchisi, muallifning ilgari yozgan turkiy tildagi kitoblari yetarli emasligi, to'rtinchisi va eng asosiysi uni o'g'li Ahmadning iltimosiga ko'ra yozganligini ta'kidlaydi. Aynan kitobning muqaddima qismida muallif asarni aynan kimga va nima sababdan, uni qaysi manbalardan foydalanib yozganligini, davrning ijtimoiy-madaniy holati, turkiy va arab tillari o'rtasidagi fonetik farqlar haqida ta'kidlab o'tadi.

Bundan so'ng grammatik kategoriyalarga oid to'rt sarlavha ostida kitobning asosiy qismlarini yozadi.

Birinchi qism: masdarlar, fe'lining bo'lishli, bo'lishsiz, buyruq, inkor shakllari va boshqalar;

Ikkinchi qism: ismlar, ya'ni, inson tana a'zosi nomlari, kiyim-kechak, insoniy fazilatlar, hayvonlar, dengiz hayvonlari, osmon va yer jismlari nomlari, mevalar, o'simliklar, sut va sut mahsulotlari, antonim va sinonim so'zlar, ranglar, hunarmandchilik buyumlari, uy-joy va ro'zg'or idishlari, urush anjomlari, kasb nomlari va boshqalardan iborat.

Uchinchi qism: olmoshlar, ko'rsatish olmoshlari, yuklamalar va nisbiy olmoshlari haqida;

To'rtinchi qism: turkiy va arab tillarida ko'p ishlatiladigan so'zlardan iborat.

Ushbu to'rt bobdan so'ng kundalik hayotda ishlatiladiga jumlar keltirilgan. Kitobning ilk qismida fe'llar turkumlarga bo'lingach, ular ma'nosiga ko'ra tasniflanadi: kelmoq-ketmoq, yugurmoq-to'xtamoq, kulmoq-yig'lamoq va hokazolar kabi zid ma'noga ega so'zlar beriladi. Biroq sinonim shakldagi so'zlar ham uchraydi. Ikkinchi bo'limdagi so'zlar konseptual sohaga asosida tasniflanadi. Uchinchi bo'lim esa grammatik mavzu muhokamasiga bag'ishlangan. Kitobning to'rtinchi qismi arab va turkiy tillarda keng qo'llaniladigan so'zlar berilgan.

Besim Atalayning so'zlariga ko'ra, Solih ibn Muhammad "Ash-Shuzur az-Zahabiyya"dan tashqari yana "Qamus al-Arvam fi nizam al-Kalam", "Uknum fi lug'at ar-Rum", "At-Tarjuman fi lug'at al-Usman" kabi kitoblar ham yozganligini aytadi (1949: VI).

"Ash-Shuzur az-Zahabiyya"da Solih ibn Muhammadning asli kimligi, qayerdanligi, qanday shaxs bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, u Istanbulga ketmoqchiligi, uning otasi va ukalari ham borligi aytiladi.

Turkiyaning Milliy kutubxonasida 06 Mil Yz A 4764/1 inventar raqam bilan saqlanadigan B nusxasi muqovasida quyidagi yozuvni ko'rish mumkin: كتاب الشذور الذهبية و القطع الاحمدية في اللغة التركية للامام العالم العلامة ملاً صالح افندي, ya'ni "Ash-Shuzur az-Zahabiyya imom, olim, mullo Solih Afandi nomli shaxsga tegishli" degan yozuvning mavjudligi, Solih ibn Muhammadning bilimdon shaxs ekanligini ko'rsatadi. Muallif yozgan boshqa kitoblardagi barcha ma'lumotlar jamlanganda u Solih Mehmed afandi (Ho'jazoda) ekanligi kelib chiqadi. Solih Mehmed afandi Ho'ja Sa'diddinning beshinchi o'g'lidir. U 1582 (hij. 990) yil 8-iyun kuni tavallud topgan. U Salonika, Makka, Misr va Edirnada mullalik qiladi. U 1622 yil Istanbulda qisqa muddat qozilik ham qilgan. Muallif 1629-yil 3-iyunda vafot etdi. U Ayyub tumanida otasi qabri yoniga dafn qilinadi. Odamlar u kishini hushmuomala, iffatli, muloyim inson sifatida



eslaydilar. Ma'lumotlarga ko'ra, uning ikki qizi bo'lgan. Bular: Oyshaxonim va Solihaxonimlar. (Sureyya,1996:1468)

Solih ibn Muhammad Usmonlilar hududining katta qismini aylanib, xalq orasida yurgan va o'zi tashrif buyurgan joylarning til hodisalarini o'rgangan, bu esa turkiy tillarning tarixini o'rganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Misrda bitilgan "Ash-shuzur az-Zahabiyya"ning muqaddima qismida bu zamonda Usmonlilar hukmronlik qilayotganligi, ularning tili sultoniy turkchasi (usmonli) ekanligi aytiladi. Mamlakatdagi so'zlashuv tili ham qipchoq turkchasidan o'g'uz turkchasiga o'tilganligi ta'kidlanadi. Ammo xalq orasida qipchoq tilida so'zlashuvchilar hali ham mavjud edi. Bu haqida Solih ibn Muhammad shunday deydi: "Kufa va uning atrofi tatar (qipchoq) mintaqalarida qipchoq tili hali ham ishlatiladi. Men bunga o'sha yurtlarni kevganimda guvoh bo'ldim". Bu iboralar so'nggi bosqichda mintaqada qipchoq (tatar)larning oz miqdorda qolganligini ko'rsatadi. Qo'lyozmadagi turkiy so'zlarning tovush tuzilmalari tadqiq qilinganda qipchoq xususiyatlari kamroq, o'g'uz xususiyatlari ko'proq ekanligi ko'rindi. Bundan ko'rinadiki, "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" o'tish davri kitobidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Usmonlilar davlati fuqarolari turk tilini o'rganishga jiddu jahd ila harakat qilishdi. Shuning uchun bu masalada XVII asrda Solih ibn Muhammad o'zining "Ash-Shuzur az-Zahabiyya" asari bilan ustoz sifatida tanildi. U Usmonlilar mamlakatini kezar ekan, Kufa, Misr, Anatoliya va Rumeli bo'ylab sayohat qilib, bu hududlarning tillarini o'rgandi va xalqning tilga bo'lgan ehtiyojini qondirish kerak degan qarorga keldi. Dastlab u Misrdagi arab bolalariga turkiy tildan saboq berdi, ma'ruzalarni kitob shakliga keltirdi. Bu kitoblar asrlar davomida grammatik lug'atga oid muhim darslik sifatida foydalanildi.

Asar konsepsion usulga tayanib yozilgan. Avval grammatik kategoriyalar tanlab olinib, so'ngra shu kategoriyalarga mos keladigan so'zlar ro'yxati tuzildi. Kitobning uch bobida til kategoriyalari sifatida fe'llar, ismlar, yuklamalar keltirilgan, to'rtinchi bobda esa XVII asrga oid arabiy-turkiy so'zlar sanab o'tilgan. Bu bo'limda o'sha davrning etimologiyasi yoritilgan.

Turkiy til ustozlari, mulla, olim Solih ibn Muhammadning turkiy tildagi faoliyati faqatgina Misrda cheklanib qolmadi. U Anatoliyada turkiy tilga oid "Qamus al-Arvam fi nizam al-Kalam", "Uknum fi lug'at ar-Rumiyy", "At-Tarjuman fi al-lug'at Usmaniyy" asarlarini ham yozgan. Bu asarlarni o'zbek tiliga o'girib, ularni tilshunoslik nuqtayi nazardan tahlil qilib, u yerdagi ma'lumotlarni yoritish o'zbek tilshunosligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulkadirog'lu, (1997). "Halimi Chalabi", dia, c. 37, Istanbul: türk diyanet vakfi yayinlari.

2. Argunşah, Mustafa, Yüksekaya, Gülden Sağol, Tabaklar, Özcan, (2010). Karahanlıca, Harezmi, Kıpçakça dersleri, İstanbul: Kesit Yayınları.
3. Atalay, Besim (1949). Eş-Şüzûr'z-Zehebiyye ve'l-Kıtai'l-Ahmediyye fi'l-Lugati't-Türkiyye, İstanbul: Üçler Basımevi.
4. Ayverdi, İlhan (2006). Büyük Misalli Türkçe Sözlük, (Yay. Haz. Kerim Can Bayar), İstanbul: Kubbealtı Neşriyat.
5. Baktir Mustafa, (1999). "İbn Melek", DİA, C. 37, İstanbul: Türk Diyanet Vakfı Yayınları
6. Çetin, Abdülbaki, (2006). "Ahmed-i Dâî'nin Farsça Öğretmek Amacıyla Yazdığı Bir Eser: Müfredât", Türkiyat Araştırmaları Dergisi, S. 20, ss. 113-128
7. İnche, Adnan (2010). "Nimetullâh Lugati'nin Metin Kuruluşu Üzerine", Türkiye'de ve Dünya'da Sözlük Yazımı ve Araştırmaları Uluslar Arası Sempozyumu Bildirileri, İstanbul: Kubbealtı Neşriyat
8. Karahisari, Muslihiddin Mustafa bin Şemseddin, (1875). Ahterî-i Kebir, İstanbul: Ali Bey Matbaası.
9. Kilich, Hulusi (1989). "Ahterî", DİA, C. 2, İstanbul: Türk Diyanet Vakfı
10. O'ztahtali, İbrahim İmran, (2009). "Şerh Geleneği ve Lâmi'î'nin Şerh-i Dibace-i Gülistan'ı", Tubar, S. 29, ss. 293-302
11. [http://www.tubar.com.tr/TUBAR%20DOSYA/ztahtal\\_imran%20293-302.pdf](http://www.tubar.com.tr/TUBAR%20DOSYA/ztahtal_imran%20293-302.pdf), (E.T. 01. 12. 2011)
12. Sureyya, Mehmed, (1996). Sicilli Osmanî, (Yayına Haz. Nuri Akbayar), İstanbul: Kültür Bakanlığı ile Türkiye Ekonomik ve Toplumsal Tarih Vakfı (ortak yayın)
13. Toparlı, Recep, (2003). Ed-Dürretü'l-Mudiyye fi'l-Lugati't-Türkiyye, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
14. Turan, Esra İpek, (2007). "Aşçı Dede Halil İbrahim Efendi'nin Fars Dili Ve Gramerine Dair Çalışmaları", (Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü).